

## JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XODIMLARNI BOSHQARISH USULLARI

*Abraev Shoxrux Xolmurodovich<sup>1</sup>*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xodimlarni boshqarishning zamonaviy tizimini joriy etishda xorijiy va mamlakatimiz olimlarining fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, xodimlarni boshqarishning evolyusion yondashuvlar bosqichlarining mazmun-mohiyati, zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish vazifalari va ularni hal qilish yo'llari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** xodimlarni boshqarish, xodimlarni boshqarish tizimi, xodimlarni boshqarish tamoyillari, KPI tizimi, personal faoliyati.

### **Kirish.**

Har qanday ijtimoiy boshqaruv kabi jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini boshqarish ham o'z tarkibiy elementlari, ya'ni boshqaruv sub'ekti, ob'ekti hamda ular o'rtasidagi aloqa, amal qilish va hamkorlik muhitiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son (2021yil 29 noyabr) farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontsepsiyasi"da jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solishi belgilangan bo'lib, unda sub'ektlarning hamkorlik bo'yicha asosiy vazifalari belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha barcha davlat organlari va tashkilotlari, jamoat birlashmalari, xalqaro tashkilotlar hamda fuqarolar bilan samarali hamkorligini ta'minlaydi. Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida moliyaviy, iqtisodiy va moddiy resurslardan samarali foydalanish bilan birga albatta xodimlar rolini ham oshirib borish zarur. Buning uchun rahbarlar har bir xodim tashkilotning asosiy qadriyati ekanligini uni boshqarish jarayonida tan olishi lozim. XX asr oxiriga kelib tashkilotlar inson hayotining universal shakliga aylanishga ulgurib, bir qancha maqsadga yo'naltirilganlik, faoliyat yuritishi va rivojlanishi, tartiga solingan tashkiliy tuzilmasi, alohida madaniyati, doimiy ravishda tashqi muhit bilan aloqadorligi, turli resurslardan foydalanishi kabi belgilariga ega bo'ldi. Ushbu belgilarning kombinatsiyasi har bir tashkilot uchun alohida xususiyatga ega bo'lib ular ichida inson resurslari Markaziy o'rinni egallaydi.

Xodimlarni boshqarish tizimi tashkilot uchun kerakli kadrlarni tanlash va saqlash, ularni kasbiy o'qitish, har bir xodimning faoliyatini, hatti-harakatlarini to'g'ri baholash va samaradorligini oshirishdan iborat bo'ladi. Ayniqsa, respublikada raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va innovatsiyalarni rivojlantirish natijasida yuqori malakali kadrlardan iborat zamonaviy tashkilotlarni shakllantirish hozirgi davr talabi bo'lib qolmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev joriy yildagi Oliy Majlisga murojaatnomasida kadrlar masalasiga to'xtalib shunday degandi: "Sharq donishmandlari aytganidek, "eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, jamoat joylarida, shu jumladan yo'llarda, transport va turizm infratuzilmasi ob'ektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan barcha kuch va vositalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, ular o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etadi hamda tashkiliy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

*Mahalliy davlat hokimiyati organlari jamoat xavfsizligini ta'minlash xizmati sub'ektlari bilan o'zaro hamkorlikda, jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshiradi; yong'in xavfsizligini ta'minlash tizimlari, shoshilinch tibbiy yordam xizmatlari, jamoat*


<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti Magistratura Tinglovchisi



joylaridagi kommunikasiya, muhandislik-texnik vositalar hamda boshqa tizimlarga qo'yiladigan yagona huquqiy talablarga rioya etish chora-tadbirlarini nazorat qiladi va amalga oshiradi; tegishli hududdagi jamoat joylarida qurilish normalariga, texnik ekspluatsiya qoidalariga, kommunikasiya, ekologiya, sanitariya, epidemiologiya standartlari va talablariga rioya qilinishini nazorat qiladi; yo'l harakatini tartibga solish va mavjud transportinfra tuzilmasidan oqilona foydalanish choralari ko'radi; jamoat xavfsizligini bevosita ta'minlovchi sub'ektlarni moddiy-texnik ta'minlash, ularning xodimlarini ijtimoiy himoya ilish darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi** Tadqiqotning metodologik asosini xodimlarni boshqarish va ularning malakasini muntazam oshirib borish, rivojlantirish sohasidagi qonun osti va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4749 sonli Farmoni[23] , O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi[1], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4 oktyabrdagi "xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar klassifikatorini yanada takomillashtirish to'g'risida"795 – sonli qarorlari olindi. Shuningdek, mazkur farmon va qarorlarda belgilangan talablar asosida xodimlarni boshqarishda ularning malakasini muntazam oshirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlash, zamonaviy boshqaruv tamoyillari va kontsepsiyalari, boshqaruv tizimida xodimlarni boshqarish va ular faoliyatini baholashda KPI (Key Performance Indicators) tizimini joriy etishga yo'naltirilgan islohotlarni davom ettirishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan taklif va tavsiyalardan hamda tegishli jarayonli yondashuv, qiyosiy va tizimli, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalaniladi.

**Tahlil va natijalar** "Xodimlarni boshqarish" kategoriyasini tadqiq qilish jarayonida O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi bilan bog'liq bo'lgan xujjatlarni tahlil etganimizda tashkilot xodimlari mehnat mazmunining tavsiflari va ko'rsatkichlari tizimiga ko'ra bir necha toifalarga bo'linganligini va ularga alohida ta'riflar berilganligi ma'lum bo'ldi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 795 - son qarori bilan tasdiqlangan "xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori"[24] ga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tashkil etilgan davlat korxonalar, muassasalari va tashkilotlarida, xo'jalik boshqaruvi organlarida, shuningdek ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan tashkilotlarning xodimlari mehnat mazmunining tavsiflari va ko'rsatkichlari tizimiga ko'ra quyidagi toifalarga ajratilgan (1-rasm).



**1-rasm. "Xodimlarning mehnat mazmuni tavsiflari va ko'rsatkichlari tizimiga ko'ra tavsiflanishi"**  
Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**Boshqaruv xodimlari** - boshqaruv funktsiyalarini amalga oshiruvchi, xodimlarga rahbarlik qiluvchi, zarur qarorlarni ishlab chiquvchi va qabul qiluvchi, tashkilot faoliyatini rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va jarayonlarni tartibga soluvchi xodimlar, zarur qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlar tayyorlovchi xodimlar. Boshqaruv xodimlari tashkilotning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga erishishi uchun zarur shartlarni, Yuklangan funktsiyalarni va ishlab chiqarish dasturlari bajarilishini ta'minlaydilar. Boshqaruv xodimlari o'z navbatida rahbarlarga va boshqaruv xodimlari mutaxassislariga bo'linadi.

**Ishlab chiqarish xodimlar** – tashkilotning asosiy mahsulotlarini ishlab chiqarish, shuningdek ishlab chiqarish dasturida belgilangan qo'shimcha mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida bevosita



qatnashadigan xodimlar. Ishlab chiqarish xodimlari tarkibiga ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashadigan mutaxassislar ham kiradi.

**Texnik xodimlar** – funktsiyasiga boshqaruv xodimlari faoliyatiga texnik xizmat ko'rsatish hamda ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni ta'minlash ishlarini bajarish (nashr etish, ko'paytirish, arxivlash, kutubxona ishi, xujjatlarni etkazib berishva boshqa ishlarni bajarish) kiradigan xodimlar.

**Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar** – funktsiyasiga binolar va hududlarga texnik xizmat va xo'jalik xizmati ko'rsatishi qo'riqlash, boshqaruv xodimlariga transport xizmat ko'rsatish, tashkilotning boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqa ishlar, shu jumladan, ijtimoiy maishiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga mutaxassislar va ishchilar toifasiga mansub bo'lmagan aholiga maishiy xizmat ko'rsatish xodimlari ham kiradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari jamoat xavfsizligini ta'minlashga doir davlat dasturlarini, hududiy va idoraviy dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi, shuningdek, jamoat xavfsizligi sohasidagi Qonunchilik hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Jamoat xavfsizligi kontsepsiyasining 5-bandida "jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat idorralari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, fuqarolar xamda ommaviy axborot vositalari bilan xamkorlikda amalga oshiriladi".

Jamoat xavfsizligini ta'minlashning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha samarali hamkorlikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish borasida amalga oshi riligani slohotlar natijasida ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning "**respublika–viloyat–tuman–mahalla**" tizimi asosida yaxlit boshqaruv va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlari shakllandi mazkur tizimning joriy etilishi, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni samarali tashkil etish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash imkonini bermoqda. Ichki ishlar organlarining **respublika miqyosida** turdosh sohaviy xizmatlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish hamda o'zaro hamkorlikni ta'minlashning yagona tizimini yaratish maqsadida, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l-harakati xavfsizligi va probasiya xizmatlarini o'z ichiga oladigan jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi.

Departament boshlig'i ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoat xavfsizligini ta'minlash tadbirlarining yagona muvofiqlashtiruvchisi hisoblandi. Shu bilan birga o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda quyidagilar, jamoat xavfsizligi departamentning jamoat xavfsizligini ta'minlovchi va unda ishtirok etuvchi sub'ektlarning faoliyatini muvofiqlashtirish sohasidagi asosiy va zifalari etib belgilangan:

Ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi bo'linmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, kompleks tahlil qilish hamda ularga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;

Jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etish, jamoat joylarida aholining xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari kuch va vositalarini samarali boshqarish choralari ko'rish;

Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi faoliyatini ta'minlash, profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish ishlarini tashkil etish;

Voyaga etmaganlar va yoshlar, ayniqsa ularning uyushmagan qismi bilan manzilli tarbiyaviy va profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish orqali ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olish;

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etish, yo'l-transport hodisalarining barvaqt oldini olish, transport vositasini boshqarishga doir cheklovlarga rioya etilishini nazorat qilish;

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etishni ta'minlash, probasiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ijtimoiy moslashtirish va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish ishlarini tashkil etish.

Jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan kuch va vositalarni markazlashgan tarzda boshqarish tartibini samarali yo'lga qo'yish maqsadida ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligi departamenti huzurida yagona muvofiqlashtirilgan idoralararo boshqaruv tizimi tashkil etilmoqda.

Respublikada jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelgan taqdirda vakolatli idoralarning harakatlarini umumiy muvofiqlashtirish hamda o'zaro hamkorlikni ta'minlash



vazifasi ham jamoat xavfsizligi departamenti zimmasiga yuklatilgan bo'lib, bu borada uning qoshida yagona idoralararo boshqaruv shtabi tashkil etiladi.

**Toshkent shahri va Toshkent viloyati** ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali tashkil etish hamda o'zaro hamkorlikni tashkil etish maqsadida o'ziga xos boshqaruv tizimi joriy etilgan bo'lib, unga muvofiq, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida jamoat xavfsizligini ta'minlash ushbu hududlardagi ichki ishlar va boshqa vakolatli organlarning mavjud kuch va vositalarini yagona "poytaxt mintaqasi" tamoyili asosida safarbar qilgan holda hamkorlikda amalga oshiriladi.

Yagona "poytaxt mintaqasi" tamoyili asosida ishlarni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari boshliqlarining ham raisligida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etilgan bo'lib, Toshkent shahar va Toshkent viloyati Milliy gvardiya boshqarmalarining boshliqlari Kengash raisining o'rinbosarlari hisoblanadi.

Kengash yig'ilishlari har oyda kamida bir marotaba o'tkaziladi hamda ularda poytaxt mintaqasida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish natijasida aniqlangan muammolarni o'zaro hamkorlikda hal etish bo'yicha manzilli choralar belgilanadi.

Jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvi hamda o'zaro hamkorlikni ta'minlash Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi zimmasiga, umumiy boshqaruvi ichki ishlar vaziri zimmasiga yuklatiladi.

Poytaxtdagi barcha ichki ishlar organlari faoliyatini, shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatli davlat organlari va jamoat tuzilmalari kuch va vositalarining yagona tezkor boshqaruvini tashkil etish maqsadida Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida yagona tezkor boshqaruv markazi tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Poytaxt hududida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni uzluksiz monitoring qilish, jamoat xavfsizligini ta'minlashga jalb etilgan ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Toshkent shahar hokimligining tegishli kuch va vositalarini boshqarish;

jinoyat, hodisalar va favqulodda holatlar haqidagi xabarlarga tezkorlik bilan munosabat bildirish, jamoat tartibini ommaviy buzish bilan bog'liq holatlar yuzaga kelganda vakolatli idoralarning harakatlarini markazlashgan holda muvofiqlashtirish.

Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash kuch va vositalarini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tuman va shahar miqyosida muvofiqlashtirish maqsadida, Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, viloyat, tuman va shahar ichki ishlar organlari boshliqlarining o'rinbosari–jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimi joriy etilgan bo'lib, ularning bu boradagi asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

patrul-post va yo'l-patrul xizmati bo'linmalari faoliyatini, shuningdek, mahallalar va jamoat joylarida manzilli profilaktik tadbirlar o'tkazilishini muvofiqlashtirish;

muqaddam sudlangan va probasiya hisobiga olingan shaxslar bilan ishlash hamda ichki ishlarorganlarining tungi xizmatini tashkil etish.

Mahalla huquq-tartibot maskani mahalla va qishloqlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini bevosita amalga oshiradigan, shuningdek, fuqarolarning xavfsizligi va osoyishtaligini ta'minlash borasida ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining mahallalar kesimida birgalikda ishlashini tashkil etadigan ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidagi tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

Profilaktika katta inspektori Mahalla huquq-tartibot maskanning bevosita rahbari hisoblanadi va uning asosiy vazifalaridan biri sifatida hududda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasiga ko'maklashish uchun yuborilgan Milliy gvardiya bo'linmasi, boshqa vakolatli davlat organlarining xodimlari va jamoat tuzilmalari vakillarining faoliyatini muvofiqlashtirish yuklatilgan.

Xulosa o'rnida fikr va mulohazalarga asoslangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash faoliyatini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va tizimlaridan keng foydalanilishi, jamiyatda tinchlik, osoyishtalikni samarali ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, qolaversa, davlat boshqaruvi



sohasida ichki ishlar organlarining roli, mavqeining yuksalishiga, fuqarolarimizning tizimga nisbatan ishonchi hamda hurmati oshishiga xizmat qildi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish asosida xodimlarni boshqarish tizimini optimallashtirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Shu bilan birga, mamlakatning hamma korxonalari ham bu tajribaga murojaat qilmasdan, odat bo'yicha, eski ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidagi ishchi kuchini boshqarish kontsepsiyasiga xos bo'lgan, eskirib ketgan, xodimlarni boshqarish usullaridan foydalanmoqdalar. Buni hisobga olgan holda O'zbekiston korxonalari iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda to'plangan, xodimlarni boshqarish tizimi sohasidagi ma'lum xalqaro tajribalarni qiyosiy va tanqidiy o'rganib, undan boshqaruv amaliyotida samarali foydalanishlari zarur. Xodimlarni boshqarishning zamonaviy shakllari va usullarini o'rganish hamda undan amaliyotda foydalanish milliy korxonalariga yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Xulosa va takliflar xodimlarni boshqarish samaradorlikni ta'minlash va adolatga erishish asosida tashkil etish lozim. Agar ularning ikkisidan biri mavjud bo'lmasa, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Xodimlarni boshqarish orqali tashkilotdagi har bir xodimning lavozimi, ijtimoiy kelib chiqishi va jinsidan qat'iy nazar tashkilot umumiy maqsadi yo'lida birlashtirish orqaligina mehnat unumdorligini oshirishga erishish mumkin. Natijada har bir xodimda nafaqat tashkilotning a'zosi sifatida balki inson sifatida ham o'z hohishiga ko'ra amalga oshirgan mehnati bilan o'z ulushini qo'shish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu adolatli ishni tashkil qilish bilan samaradorlikka erishish mexanizmi sifatida tashkilotning barqarorligi ta'minlaydi. Tashkilotning barqarorligi bilan bog'liq bo'lgan va unga bevosita ta'sir qiluvchi ichki jarayonlar esa hamisha ustuvorlik kasb etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xodimlarni boshqarish tizimini samaradorligini oshirish ishlarini amalga oshirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi: - xodimlarni tanlash, joy – joyiga qo'yish va yuqori lavozimlarga ko'tarishda ularning kasbiy malaka darajasi, ishga munosabati, ahloqiy sifatлари, faoliyat natijalariga har tomonlama va ob'ektiv baho berish zarur. Kasbiy faoliyatiga baho berishda ochiqlik va tenglik tamoyillariga asoslangan tanlovdan foydalangan ma'qul;

- barcha tashkilotlarda samaradorlikning muhim ko'rsatkichi, ya'ni KPI (Key Performance Indicators, KPI) tizimini joriy qilish. Tizim tashkilotlarda mehnatga haq to'lashning motivasion va samarali tizimini ko'rsatkichlar orqali ko'rish imkonini beradi;

- barcha tashkilotlarda axborotlashtirish, raqamlashtirish tizimini kuchaytirish. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan vaqtda, barcha sohaga raqamlashtirish tizimi kirib borayotgan bir paytda tashkilotlarda zamonaviy innovation tizimni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman olganda boshqaruvda kadrlarning to'g'ri tanlanilishi va joy - joyiga qo'yilishi korxonalar va tashkilotlarning yutuqlari, mavqeini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi kunda rahbar kadrlarga nisbatan kreativ yondashuvlar, tanqidiy tahliliy munosabat va maqbul shart - sharoitlar yaratish talabi qo'yilmoqda. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilotda xodimlarni boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillardan to'g'ri va samarali foydalanish pirovard natijada tashkilot iqtisodiy samaradorligining oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlarning barchasi yangilanayotgan O'zbekistonda kadrlar sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishni anglatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. <http://www.press-service.uz>
2. Marr S, Shmidt G. ijtimoiy tungi iqtisodiyotda xodimlarni boshqarish. M., 2019. - c. 66.
3. Daft R. L. Boshqaruv. Qarang:., 2020. - c. 134.
4. Armstrong M. inson resurslarini boshqarish amaliyoti. - M., 2018. - c. 212
5. Kaming M. A. xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyoti. M.: Yangiliklar, 2019. 35-sahifa.
6. Texnologik taraqqiyot va ishchi kadrlar harakati. Darslik. - M.: infra-m, 2020 yil.
7. Xodimlarni boshqarish: universitetlar uchun darslik. / T. B. Bazarov, B. L. Eremin tomonidan tahrirlangan. - 2nd ed., qayta ko'rib va qo'shimcha. - M.: birlik, 2018. - p. 109.
8. Harakat ishchi kuchi. Darslik. - M.: ras emo nomi bilan, 2009. 457 sahifa
9. Xodimlarni rag'batlantirish. O'lchash va tahlil qilish. Darslik. - M.: Finpress, 2020 Yil.



10. Zaytseva T. V., zub A. T. xodimlarni boshqarish: darslik. - M.: ID forum infra-M, 2018-p. 13.
11. Inson resurslarini boshqarish: darslik / L. V. Kartashova. - M.: infra-m, 2018 yil.
12. Xodimlarni boshqarish asoslari: darslik. 2-nashr., qayta ko'rib chiqilgan va qo'shilgan. - M.: infra-M.-2017. -325 s.
13. Oganesyanyan I. A. tashkilotda xodimlarni boshqarish. Minsk, 2020 yil. 128 s.
14. Mehnatni tashkil etish va me'yorlash: darslik/ A. I. Rofe. - M.: KNORUS, 2018.
15. Q.X Abduraxmonov. Personalni boshqarish. Darslik . T-"fan va texnologiya".2008., Mehnat iqtisodiyoti. Darslik.-T:"Mehnat", 2019
16. D. N. Rahimova Tomonidan. Radikal rnmochnmx islohotlarini quritish sharoitida O'zbekistonning mehnat salohiyatini rivojlantirish va undan foydalanish jarayonlarini boshqarish: monografiya. - T.: Toshkent Davlat texnika universiteti A. R. Beruni, 2020 Yil.
17. Mirzadjonov Sh.R. O'zbekistonda kadrlar konsaltingi - rivojlanish istiqbollari. //Kadrlar masalalari bo'yicha ma'lumotnoma. - T., 2017.- № 8.- 48 b.
18. Mo'minova R. Xodim karerasini rejalashtirish. // Kadrlar masalalari bo'yicha ma'lumotnoma.- T., 2017, 38b

